SHOYIM BO‘TAYEVNING “SHAMOL O‘YINI” QISSASIDA MILLIY MAROSIM VA QADRIYATLARNING BADIIY IFODASI

I.S.Sobirjonova[1]

1. NavDU Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Mas'ul muallif: Sobirjonova Irodaxon Sobirjonovna, NavDU Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti.

e-mail: irodaxonsobirjonova69@gmail.com

Received: 26 Oktabr 2026
Accepted: 31 Oktabr 2026
Published: 05 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Sobirjonova, I. S. SHOYIM BO‘TAYEVNING “SHAMOL O‘YINI” QISSASIDA MILLIY MAROSIM VA QADRIYATLARNING BADIIY IFODASI / I. S. Sobirjonova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 177–179.

Annotatsiya. Maqolada taniqli o‘zbek yozuvchisi Shoyim Bo‘tayevning “Shamol o‘yini” qissasida o‘zbek xalqining milliy marosimlari, udumlari va azaliy qadriyatlarining badiiy ifodalanishi tadqiq etilgan. Asardagi Tepa qishlog‘i misolida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan soddadillik, bag‘rikenglik, hamjihatlik, keksalarga bo‘lgan yuksak hurmat kabi xususiyatlar ochib beriladi. Shuningdek, sovet davri mafkuraviy tazyiqlari va taqiqlari sharoitida ham xalqning o‘z o‘tmishi, diniy-milliy rasm-rusumlari hamda “Momouloq” kabi o‘ziga xos mahalliy marosimlarini saqlab qolish uchun ko‘rsatgan ma’naviy matonati badiiy detallar orqali tahlil qilingan. Maqolada hasharning ijtimoiy birlashtiruvchi funksiyasi hamda mehmondo‘stlik an’analarining falsafiy-axloqiy mohiyati yoritilgan. Ushbu maqolada “Shamol o‘yini” qissasi misolida xalq marosimlari va udumlarining asar syujeti hamda qahramonlar obrazini shakllantirishdagi badiiy funksiyalarini ilmiy jihatdan yoritish maqsad qilingan.

Kalit so'zlar: “Shamol o‘yini” qissa, milliy qadriyat, xalq marosimlari, an’ana, milliy o‘zlik, madaniy meros, ma’naviy boyliklar.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБРЯДОВ И ЦЕННОСТЕЙ В ПОВЕСТИ ШОЙИМА БЎТАЕВА «ИГРА ВЕТРА»

Аннотация. В статье исследуется художественное выражение национальных обрядов, обычаев и многовековых ценностей узбекского народа в повести «Шамол уйини» («Игра ветра») известного узбекского писателя Шоима Бутаева. На примере кишлака Тепа, описанного в произведении, раскрываются такие присущие узбекскому народу черты, как простодушие, великодушие, сплоченность и глубокое уважение к старшим. Кроме того, через художественные детали анализируется духовная стойкость народа, проявленная ради сохранения своего прошлого, религиозно-национальных традиций и уникальных местных обрядов (таких как «Момоулок») в условиях идеологического давления и запретов советского периода. В статье также освещаются социально-объединяющая функция хашара и философско-этическая сущность традиций гостеприимства. Целью данной статьи является научное освещение художественных функций народных обрядов и обычаев в формировании сюжета и образов персонажей произведения на примере повести «Шамол уйини».

Ключевые слова: повесть «Шамол уйини», национальные ценности, народные обряды, традиция, национальная идентичность, культурное наследие, духовное богатство.

THE ARTISTIC REPRESENTATION OF NATIONAL RITUALS AND VALUES IN SHOYIM BO‘TAYEV’S NOVELLA “SHAMOL O‘YINI”

Abstract. The article examines the artistic representation of the Uzbek people's national rituals, customs, and ancestral values in the novella “Shamol o‘yini” (The Wind Game) by the prominent Uzbek writer Shoyim Bo‘tayev. Through the depiction of Tepa village in the work, characteristics inherent to the Uzbek people, such as simplicity, generosity, solidarity, and high respect for the elderly, are revealed. Furthermore, the spiritual resilience demonstrated by the people to preserve their past, religious and national rituals, as well as unique local ceremonies like “Momouloq” under the conditions of Soviet ideological pressures and prohibitions, is analyzed through artistic details. The article also highlights the socially unifying function of hashar (voluntary mutual aid) and the philosophical-ethical essence of hospitality traditions. This article aims to scientifically elucidate the artistic functions of folk rituals and customs in shaping the plot and character images of the work through the example of the novella “Shamol o‘yini”.

Keywords: “Shamol o‘yini” novella, national value, folk rituals, tradition, national identity, cultural heritage, spiritual wealth.

Kirish. Har bir xalqning o‘zligini, o‘tmishi va ma’naviy qiyofasini belgilovchi eng muhim omillardan biri uning milliy qadriyatlari hamda urf-odatlari tizimidir.

Milliy qadriyatlar muayyan millatning tarixiy rivojlanish jarayonida yaratgan

moddiy va ma'naviy boyliklari, yashash tarzi, tili va madaniy merosini o'z ichiga olgan keng qamrovli tushunchadir. Ular umuminsoniy qadriyatlarning ajralmas qismi bo'lib, har bir millatning o'ziga xos turmush tarzini ifodalaydi. Badiiy adabiyot esa xalq hayotidagi ana shu an'analarni, milliy marosimlarning jamiyatni jipslashtirishdagi o'rnini ko'rsatib beruvchi va kelajak avlodga yetkazuvchi asosiy vositadir.[7.16]

Muayyan xalqqa, millatga va uning ajdodlariga taalluqli, farzandlariga bekamu ko'st yetkazilishi lozim bo'lgan qimmatbaho moddiy va ma'naviy boyliklar milliy qadriyatlardir. [3.21]

"Milliy qadriyatlar" – muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar, yashayotgan hudud, madaniy-ma'naviy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat ruhi, tarixi, yashash tarzi, milliy umrguzaronlikni tartib-qoidalari hamda ular bilan bog'liq xususiyatlar, jihatlar va boshqalarning ijtimoiy ahamiyatini ifodalaydigan tushunchadir. U umum-ijtimoiy qadriyatlar tizimidagi xususiy bo'g'in, ya'ni milltga xos bo'lgan qadriyatlarning eng umumiy jihatlarini aks ettiradi. [6.10]

Tadqiqot metodologiyasi. Insonga sihat-salomatlik tilash, uning turmushida to'kinoskinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o'tkaziladigan, xalq orasida qat'iy an'anaga aylanib qolgan xatti-harakatlar marosim deyiladi. [9]

Badiiy asarlarda milliy qadriyatlar va marosimlar ifodasini tadqiq etish adabiyotshunoslikda har doim dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Chunki asardagi milliy detallar yozuvchining g'oyaviy niyati va qahramonlar xarakterini ochib berishda muhim o'rin tutadi. Taniqli yozuvchi Shoyim Bo'tayevning "Shamol o'yini" qissasida xalqimizning azaliy an'analari Tepa qishlog'i odamlarining hayoti misolida yuksak mahorat bilan tasvirlangan.

Qissa dastlabki sahifalaridanoq o'zbek xalqining azaliy qadriyatlarini namoyon etish bilan boshlanadi. "Tepa qishlog'i odamlarning kiyinishlari qishloqicha, jo'n. xulq-atvorlari keng, hotamona. Hayot kechirishlari haminqadar. Boshqalardan ajralib turadigan tomoni – ularning uzoq umr ko'rishlari edi. Mana, kuni kecha Esonqul buvaning janozasida davra qurgan kampirlar unga yuz yoshni ravo ko'rishdi. Ustiga ustak, ma'nodor bosh chayqashib, afsus-nadomatlarni qalashtirib, "ancha barvaqt ketdi", deya ko'z yoshi ham qilib olishdi". [1.3] Ushbu qisqa parchaning o'zidayoq muallif qishloq jamoasining o'ziga xos qadriyatlar tizimini uzoq umr ko'rishni oliy ne'mat sifatida qadrlashini ochib beradi. Shuningdek, Tepa qishlog'i misolida o'zbek xalqiga xos bo'lgan soddadillik, bag'rikenglik, hamjihatlik va keksalarga bo'lgan yuksak hurmat kabi azaliy qadriyatlarni badiiy bo'yoqlarda ko'rsatadi.

Qissada tasvirlangan yana bir o'ziga xos milliy-mahalliy udum bu "Momouloq" deb ataluvchi marosim bo'lib, bu faqat kampirlarga atalgan, savob yo'lida so'yiladigan uloqni anglatadi. Bu an'ana qishloqdagi keksalar xotirasini shod etish va qariyalarni e'zozlash bilan bog'liq muqaddas marosimdir. Yozuvchi bu marosimni tasvirlash orqali jamoaviylik, o'zbekona hamjihatlik va o'tganlar ruhiga sadoqat tuyg'ularini badiiy umumlashtiradi. "Keyin-keyin kampirlarga atalgan uloqning ismi "Momouloq" bo'lib ketibdi. Tepaliklarning soddaliklari, ochiq ko'ngilliklariga, rahmdilliklari-yu hamjihatliklariga momouloq bahonasidagi ana shu suhbatlar sabab bo'lgan ekan... Podachi bir so'zli yigit. Aytganining ustida chiqdi. Uloqni so'yib, terilab ham ketibdi. Kampirlar kirib kelishganida Niso acha terini oshlab o'tirgan ekan. Ular o'zlari qozon osishdi. So'ngra uyga kirib, davra qurib o'tirishdi."[1.29] Muallif momouloqni shunchaki go'sht yeyish marosimi emas, balki qishloq onalarining uchrashuv, gurung va o'zaro dardlashuv maskani sifatida tasvirlaydi. Marosim qishloq xalqining soddaligi, bag'rikengligi va samimiyligini ochib beruvchi ko'zgu vazifasini o'taydi.

Qissada bu udumning kelib chiqishi haqida qadimiy bir rivoyat ham keltiriladi: qadim zamonlarda bir podachi kunbo'yi poda boqib, uzoqda yurganida onasini yolg'iz zerikishdan asrash uchun uyga uloq so'yib ketib, onasiga kampirlarni chaqirib, boshqa hech kimning og'zi tegmasin, deb tayinlaydi. Kampirlar uloqni pishirib yeb, ertalabdan to poda qaytguncha suhbatlashib o'tirishadi. Shu - shu odamlar ba'zilari onalari uchun, ba'zilari buvilari uchun navbatma-navbat uloq olib kelib so'yib beraverishibdi va bu marosimga aylanib qolibdi. Ushbu kichik rivoyat orqali muallif "Momouloq" udumining tub mohiyatini ya'ni, bobo-buvi, ota-onaga, xususan qariyalarga bo'lgan mehr-oqibat va g'amxo'rlikni ochib beradi. Bu esa udumni shunchaki g'aroyib marosim emas, balki chuqur insoniy-axloqiy zaminga ega qadriyat sifatida ko'rsatadi.

Tadqiqot muhokamasi. O'zbekona hayot tarzida mehmonga bo'lgan munosabat insonning iymon darajasini belgilaydi. Qissada Mirza bobo va boshqa obrazlar orqali mehmondo'stlik an'anasining falsafiy mohiyati ochiladi. "Mirza bobonikida mehmon kelishini xobi xotirlariga keltirmay, tuppa qilishgan ekan. Mehmonning izzati uchun qovurdoq pishirishguncha charxin tovoqda tuppa keltirishdi. Tepa elining odati shu, qishloqqa endi oyoq qo'yishimi, kelaverib oxurcha qilib yuborganmi - farqsiz, oldiga obu ovqat qo'yib, non-tuz totganidan so'ng qayerdan kelganligi, nima sababdan kelganligini so'rab murojaat qilishardi."[1.16-17] "Elning odati shu" degan birgina badiiy jumla ortida asriy qadriyat yotibdi. Badiiy adabiyotda mehmonga birinchi navbatda kimligi yoki qayerdan kelganligi haqida savol berish odobsizlik sanaladi. Avval mehmonga non-tuz beriladi. Shoyim Bo'tayev ushbu odatni syujetga kiritish orqali qahramonlarining ma'naviy pokligini, ularning dunyoviy tashvishlar ustidan g'alaba qozongan sof insoniy tabiatini tasvirlaydi. Mirza boboning notanish musofir (Berkinboy)ni o'z uyiga olib kelib, to'rda mehmondo'stlik ko'rsatishi xalqimizning mehmonga xudoning aziz bandasi deb qarash qadriyatini tasdiqlaydi.

Qissaning eng kuchli ijtimoiy-falsafiy pafosga ega epizodlaridan biri Mirza bobo boshqa bir marhum uyida fotiha o'qib o'tirganda, qishloqqa kelgan ikki militsioner tomonidan bu "taqiqlangan diniy amal" sifatida to'xtatilishi tasviridir. "Janozada Mirzo bobo qiroat bilan tilovat boshladi. – To'xtang, boboy, to'xtang! Nima qilyapsiz o'zi? Ta'qiq etilgan narsani qaytadan joriy etmoqchimisiz, dedi militsionerlardan biri o'rnidan sapchib turib. – Nima ta'qiq etilgan, so'rashga jur'at etdi Mirzo bobo. – Din! – dedi militsioner so'zni xuddi birovning peshonasiga niqtayotgandek".[1.111] Militsioner Mirza boboni "dinni qayta tiklamoqchimisiz" deb ayblab, javobgarlikka tortish bilan tahdid qilganida Mirza bobo xotirjam ohangda,

ammo o‘tkir qochirim bilan militsionerga qarata “Sen noma’qulning noni yebsan”[1.111] deydi. Militsioner esa g‘azablanib, cholni qamoqqa tashlash bilan qo‘rqitadi. Biroq shu payt qishloqdoshlar oraga tushib, uning gunohsizligini isbotlashga urinishadi. “Odamlar yalinib-yolvorishga tushdilar: Jon melisa uka-a, qo‘y endi, alamdan aytib yubordi-da. U bechorada nima gunoh, birovga yomonlik qilmagan bo‘lsa. O‘zi ja-a mo‘min-qobil odam. Rasm-rusum shunday bo‘lgach… Elni el qilib turgan narsa ham shu-da, melisa uka. Odam bolasining dunyoga kelishidan o‘limigacha o‘z rasm-rusumi bor. Axir, u hayvon emaski, tuproqqa itqitib o‘sha zahotiyoq unutib yuborsang…”[1.112] Aynan shu qisqa, ammo teran jumlada yozuvchining butun qissa davomida asoslab kelgan asosiy g‘oyasi – milliy marosim va udumlarning millatni millat sifatida saqlab turuvchi asosiy omil ekanligi o‘z ifodasini topadi. Muallif bu orqali sovet davri mafkurasi bilan xalq an’analari o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi.

Asar syujetining dinamik rivojlanishida yangi ko‘chib kelgan musofir Yoshiuzoq uchun uy qurish voqeasi muhim o‘rin tutadi. Bu yerda muallif o‘zbek xalqining eng fundamental qadriyatlaridan biri hasharni badiiy tahlil markaziga olib chiqadi. “Mutal jarchi pastqam ko‘chalarda jar solib yurdi: Ho-oy odamlar-u odamlar, bog‘da bitgan bodomlar, eshitmadim demanglar... Ertaga kolxozimizga yangi kelgan Yoshiuzoq akanikiga hasharga-a... Bilmaganlar bilib qo‘ysin, Yoshiuzoq aka rais buvamizning choyxonachisi Berkinboy akaning qo‘shnisi bo‘ladilar. Topgan topganidan, yiqqan yiqqanidan, tergan terganidan kafsan olib boraversin.” [1.46-47] Bunday an’anaviy jar solish uslubining aynan Tepa qishlog‘ida saqlanib qolganligi qissada alohida ta’kidlanadi. Ertasi kuni birov eshakka yog‘och sudrab, birov aravaga guvala ortib, birov vassa qo‘ltiqlab Yoshiuzoqnikiga kelaverishdi. Hash-pash deguncha tosh terilib, sinchlarni qo‘yishdi. Tushga bormay devorni urib bitkazishdi. Hasharning asardagi funksiyasi begona, ijtimoiy himoyasiz insonni qishloq jamoasiga singdirish va unga xavfsizlik hissini berishdir. Yozuvchi keltirgan detallar (“birov vassa qo‘ltiqlab”, “birov guvala ortib”) uyning poydevori qishloq odamlarining birgalikdagi mehnati va mehr-oqibati ustiga qurilganligining ramziy ma’nosidir. Bu qadriyat badiiy asarda o‘zbek xalqiga xos ijtimoiy bag‘rikenglikni ifodalash vazifasini bajaradi.

O‘zbek jamiyatida har qanday nizo va muammo qishloq oqsoqollarining, el tanigan tabarruk qariyalarning maslahati, o‘giti bilan hal qilingan. Qissada yoshlarning kattalar oldida burchli ekanligi, ularning gapini ikki qilmasligi milliy xarakterning go‘zal qirrasi sifatida beriladi. “Qishloq kattalari - ikki-uch nafar qariya oq xalatlilarning oldiga chiqib borib nima gap-so‘z ekanligini bilish fursati yetganligini sezishdi. Oldinma-ketin, asoga suyangancha ohista-ohista qadam tashlab tepaliklar tomon yo‘l olishdi. Ularning ko‘rinishlari jiddiy, muhim topshiriq bilan dil-dildan his etish, tashriflarining oqibati albatta ko‘ngillariga xavotir-u tahlika solmoqda edi. Nihoyat, ko‘zlangan manzilga ham yetgach oq qalpoqchalilar tomon yo‘nalishdi.”[1.19] Asarda qariyalarning obrazi an’analar davomchisi va milliy ma’naviyat himoyachisi sifatida gavdalanadi.

Xulosa. Shoyim Bo‘tayevning “Shamol o‘yini” qissasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, asarda milliy marosim va qadriyatlarning badiiy ifodalanishi shunchaki etnomadaniy unsurlarni aks ettirish emas, balki qissaning butun g‘oyaviy-falsafiy pafosini belgilovchi bosh omildir. Yozuvchi Tepa qishlog‘i misolida yaxlit bir o‘zbek jamiyatining badiiy modelini yaratadi va ushbu ijtimoiy muhitning azaliy turmush tarzi, begubor tabiati hamda ma’naviy yaxlitligini umumlashtiradi. Muallif mehmondo‘stlik, hamjihatlik, hashar va keksalar o‘gitiga bo‘lgan yuksak ehtiromni asar qahramonlarining xarakterini ochuvchi va ularning ruhiy pokligini tasdiqlovchi fundamental qadriyatlar sifatida talqin etadi. Umuman olganda, “Shamol o‘yini” qissasi milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligida yaratilgan bo‘lib, o‘zbek nasrida xalq hayotining falsafiy va badiiy-estetik mohiyatini teran aks ettirgan, kelajak avlodda milliy g‘urur hamda o‘zlikka sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladigan yuksak qimmatga ega asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Bo‘tayev Sh. Shamol o‘yini: Qissa va hikoyalar. – Toshkent: "Yozuvchi" nashriyoti, 1995.
[2] Jo‘rayev M. O‘zbek xalq marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1991.
[3] “Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati”: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent:… nashriyoti, 2023.
[4] Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – Toshkent, 2011.
[5] Qahramonov Q. Badiiy so‘z qudrati. – Toshkent, 2024.
[6] Zayniyeva S.X. Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni: to‘plam / Toshkent viloyati: Sharq nashr, 2025.
[7] Xo‘jayev X. O‘zbek xalqining madaniy qadriyatlari. Ma’naviyat. Toshkent. 2019.
[8] Путилов Б.Н. Фольклор и народная культура. – СПб.: Наука, 1994.
[9] https://share.google/HAeHeGY0vrDPF3rR1